

**MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING  
YUKSAK QADRIYATIDIR**

**Bobojonova Maqsuda Omonboyevna**  
*Ogahiy nomidagi ijod maktabining tarbiyachi-pedagogi*

**Annotatsiya:** "Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadriyatidir" maqolasiga qisqacha ma'lumot. Ushbu ilmiy maqolada aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyat, Islom sivilizatsiyasi, xalq, turizm.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o'rin egallayotgan bag'rikenglik tamoyili to'g'risida shunday deydi: "Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi". O'zbekistonning kelajagi tinchlik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Dunyoda nechta millat-elat, qancha xalq bo'lsa, har birining o'ziga xos milliy urf-odat va an'analari mavjud. Bugungi globallashuv zamonida millatlar o'rtasida turli nizolar bo'lib turgan bir paytda, 130 dan ortiq millat yashayotgan O'zbekistondagi millatlararo totuvlik bilan har qancha faxrlansak arziyi. BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotida 2015-yilda dunyo bo'yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo'lsa, 2016-yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 1 milliard 235 millionga ya'ni, 3.9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko'rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015-yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2016–2017 yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko'rish mumkin. Bundan ko'rinish turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Turizmning samaradorlik darajasi quyidagi raqamlarda o'z aksini topgan:

2015 yilda eng ko'p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o'ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin.

150-o'rin O'zbekiston uchun aslo xos emas

Afsuski, O'zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko'rish mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan bahoga ko'ra, O'zbekiston sayyoohlari tashrifi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o'rinni egallaydi.

Yurtimiz jahon sayyoohlilik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyoohlilik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Shuning uchun bu borada sezilarli o'sish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog'liq.

Turizm bo'yicha raqobatbardosh mamlakatlari reytingida dunyodagi (madaniy zaxiralar, arzon infratuzilma, sayyoohlilik mahsulotlari narxi, xavfsizlik darajasi, xalqaro shaffoflik jihatidan) eng jozibador 140 ta sayyoohlilik maskani qayd etilgan bo'lib, ushbu ro'yxatda Qozog'iston 85-o'rin, Qирг'изистон 116-o'rin, Tojikiston 119-o'rinni egallagan, O'zbekiston esa Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida eng oxirgi o'rinda turibdi va bu reytingga kiritilmagan.

O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagи 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo'la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigelik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoohlilik tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyoohlolar sonini sanashdan, o'tgan yilda biroz ko'paygan bo'lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o'tmayapmiz. Nahotki yirik bir sayyoohlilik salohiyatiga ega davlat bo'la turib, bitta shaharchalik natijaga erisha olmasak?

O'zbekistonimizning eng qadimgi, hali o'rganilmagan, e'tibordan chetda qolib ketayotgan, tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar va tobora yo'qolib borayotgan urf-odatlarimizni asrab qolish maqsadida (o'zbekcha, rus va ingliz tilida) ushbu platformani yaratmoqchiman. Hozirgi kunda ko'pchilik yoshlar, qiziqarli, ko'ngilochar dasturlardagi ma'lumotlarni bilishga intilishi shart. Tabiiyki, qadriyat tushunchasi ular uchun zerikarliday tuyulishi mumkin. Lekin shuni unutmasligimiz lozimki, qadriyat bu bizning o'zligimizdir. Bizni butun dunyo qadriyatimiz, urf-odatlarimiz orqali tanishini unutmasligimiz lozim. Men platforma orqali biz va bizdan keyingi yoshlarimizni tashqi yod g'oylardan asramoqchiman. Nasib qilsa, sayt faoliyatini ancha kengaytirib ichki turizmimizni rivojlanishiga o'z hissamni qo'shish niyatim bor. Sayt haqida qisqacha taqdimotni fayl shaklida yubormoqdaman.

O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi turadi. Fuqarolar manfaatlarini

faqatgina tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkin.

So'nggi to'rt yilda millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Bu huquqiy hujjatlarning aksariyati fuqarolarning dini va millatidan qat'i nazar, huquq va erkinliklarini kengaytirish, shu jumladan, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini oshirishga qaratilgan.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining asosiy vazifalari qatoriga davlat organlarining respublika hududida joylashgan milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini ta'minlash va yanada rivojlantirish kiritildi. Qo'mita qoshida fuqarolarning etnomadaniy talablarini o'rganish, aniqlash va qanoatlantirishga, millatlararo munosabatlarni mustahkamlashga, milliy sabablarga ko'ra, ehtimoliy mojarolarning oldini olishga ko'maklashuvchi Jamoatchilik kengashi tuzildi. Bundan kutilayotgan asosiy natija — mazkur sohada davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdir.

Hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan Sharq ma'nnaviyatiga tayanib yashash, hamjihatlikka intilish, har tomonlama barkamollik oliv qadriyat darajasiga ko'tarilgan, millatidan, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, yagona o'lchov

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi Respublika baynalmilal madaniyat markazi hamda O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi faoliyatları negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydag'i №PQ-5046 – sonli qaroriga asosan tashkil qilingan.

O'zbekiston o'zining o'chmas qardiyatlari, umuminsoniy fazilatlariga ega, olivjanob, mehnatsevar xalq sifatida yashashi orqali butun dunyoga dovrug'i ketgan davlatdir.

Iftixor bilan aytishimiz mumkinki, jamiyat hayotining barcha jabhasida olib

borilayotgan keng qamrovli islohotlar o'z samarasini berayapti. Binobarin, istiqlol yillarda Vatanimizda yashayotgan turli millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, tenghuquqlilik hamda hamjihatlikni mustahkamlash, uning qonuniy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. O'zbekiston tarixi II (N.Jo'rayev, A.Zamonov)
2. Is'hoqov F. Gulxaniy. O'zbek adabiyoti tarixi: 5 tomlik, IV tom. – Toshkent, 1979-yil.
3. Orzibekov R. O'zbek adabiyot tarixi (XVII-XIX(I yarmi) asrlar). O'zbekiston yozuvchilar Adabiyot jamg'armasi nashiyoti. – T.: 2006-yil, 155-bet.
4. S.Ahmedov, Sh.Rizayev, R.Qo'chqorov. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida 6- sinfi uchun darslik. II qism T.: "Ma'nnaviyat" 2017, 43-45-betlar.

5. Odam.uz

6. Interkomitet.uz